



ASPEKTUAL MA'NOLARNING PUBLITSISTIK USLUBDAGI IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Sarimsokov Sirojiddin Shoyzokovich

Samarqand davlat chet tillar instituti

PhD, v.b., dotsenti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada aspektual ma'nolar lingvistik kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi va ularning publitsistik uslubdagi ifodalanish o'ziga xosliklari lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Aspektual ma'nolarning joriy voqelikni ta'kidlash, davomiylik, takroriylik, natijalilik hamda yangilik effektini yaratishdagi funksional yuklamalari misollar yordamida yoritiladi. Publitsistik matnlarda fe'l kategoriyasining kommunikativ ta'sirchanlikni oshirishdagi stilistik imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari publitsistik diskursda aspektual ma'nolar nutqning ekspressivligi va ta'sirchanligini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** aspektual ma'no, publitsistik uslub, fe'l kategoriyasi, zamon, davomiylik, natijalilik, ekspressivlik, pragmatika.*

KIRISH.

Hozirgi davr publitsistik nutqi, ommaviy axborot vositalaridagi matnlar hamda mediadiskurs tilshunoslikning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday matnlarda nafaqat voqea-hodisalar bayon qilinadi, balki muayyan ijtimoiy fikr shakllantiriladi, ta'sirchanlik, ishonchlilik va emotsionallik darajasi oshiriladi. Ushbu funksional vazifani amalga oshirishda fe'lning aspektual ma'nolari muhim stilistik-pragmatik vosita hisoblanadi. Aspektual ma'nolar nutqning dinamik xarakterini ifodalaydi, fikrning zamon, davomiylik, natija yoki takroriylik kabi semantik xususiyatlarini belgilaydi.

Tilning funksional uslublari orasida publitsistik uslub alohida kommunikativ-pragmatik yuklama bilan ajralib turadi. Bu uslubning asosiy vazifasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va dolzarb voqea-hodisalarni keng ommaga tezkor, ta'sirchan va aniq shaklda yetkazishdan iboratdir. Shuning uchun ham publitsistik matnlar semantik jihatdan yuqori darajada dinamik bo'lib, unda voqea va jarayonlarning vaqt bo'yicha rivoji, ularning boshlanishi, davomiyligi yoki yakunlanishiga doir ma'lumotlar muhim kommunikativ ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning lisoniy ifodasida esa aspektual ma'nolar markaziy o'rinni egallaydi.

Aspektual ma'nolarning publitsistik nutqda qanday vositalar orqali ifodalanishi, ularning turli uslubiy kontekstlarda o'zgarishi, shuningdek, harakatning vaqtga nisbatan modellashtirilishida qanday lingvistik birliklar ishtirok etishi zamonaviy lingvistika uchun dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Chunki publitsistik matnlarda fe'lning zamon-aspekt shakllari, yordamchi fe'llar, tasviriy birliklar, leksik markerlar va kontekstual indikatsiya vositalari o'zaro integratsiyalashgan holda aspektual mazmunni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi publitsistik uslubdagi aspektual ma'nolarning ifodalanish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning ekspressivlikka xizmat qiluvchi lingvopragmatik funksiyalarini aniqlashdan iborat.

Aspektual ma'nolarning lingvistik tabiati

Aspektual ma'no tilshunoslikning eng muhim kategoriyalaridan bo'lib, u harakatning ichki tuzilishi, davomiyligi, chegaralanganligi, takrorlanuvchanligi, boshlanishi yoki yakunlanishining til sistemasida qanday ifodalanishini o'rganadi. Mazkur kategoriya semantik, morfologik va sintaktik darajalarning o'zaro munosabatida shakllanib, voqelikdagi dinamik jarayonlarning til vositalarida aks etishini ta'minlaydi. Aspektual ma'nolarni o'rganish turli tillarda harakatning vaqtga nisbatan qanday modellashtirilishini anglash imkonini beradi.

Aspektual vaziyat tushunchasi gap tarkibida lisoniy va ekstralingvistik omillar orqali namoyon bo'ladigan aspektual mazmunlarni — ya'ni harakatning boshlanish bosqichi, yakuniy nuqtaga yo'nalishi,



jarayonning davomiy oqimi yoki harakatning tugallanishi kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi [8]. Shunday ekan, jumlada mavjud bo‘lgan turli xil lingvistik (leksik, morfologik, sintaktik) birliklar, shuningdek, nolisoniy komponentlar va aspektual jihatdan muhim bo‘lgan barcha vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi aspektual vaziyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv doirasida G‘. Mirsanov aspektual vaziyatlarning bir qator turlarini tizimlashtirib beradi. Olim harakatning boshlanish bosqichini “inxoativ aspektual vaziyat”, takroran sodir bo‘ladigan harakatni “iterativ aspektual vaziyat”, jarayonning o‘rtasida kechayotgan holatni “protsessual aspektual vaziyat”, harakatning yakuniy nuqtaga yetishini “terminativ aspektual vaziyat”, shuningdek, harakatning tugashi natijasida ma‘lum bir holatning yuzaga kelishini “natijaviy aspektual vaziyat” sifatida tavsiflaydi [5].

Aspektning lingvistik tabiati, avvalo, uning kategoriya va funktsiya sifatida ikki qavatli tuzilishga egaligi bilan izohlanadi. Kategoriya sifatida aspekt umumiy grammatik ma‘no — harakatning xarakteri, davomiyligi va chegarasini ifodalasa, funktsiya sifatida u kontekstual sharoit bilan bog‘liq holda aniq holat, jarayon yoki natijani ko‘rsatadi. Shu boisdan aspektual ma‘no ko‘pincha morfologik shakllar (fe‘l nisbatlari, zamon shakllari, yordamchi fe‘llar) va sintaktik konstruksiyalar bilan birgalikda voqelanadi. Zamon (vaqt) konseptining voqelikni anglash va o‘zlashtirilgan ma‘lumotni yetkazish jarayonidagi ahamiyati shundaki, inson ongida kechayotgan barcha hodisalar vaqt mezonini orqali idrok etiladi. Maslova ta‘kidlaganidek, biz atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni aql-idrokimizga bo‘ysunadigan tarzda, avvalo, zamon nuqtai nazaridan tushunamiz [7].

Turli tillarda aspektual ma‘nolarni ifodalash usullari o‘ziga xos. Masalan, ingliz tilida aspektual kategoriya asosan progressive va perfect shakllar orqali belgilansa, o‘zbek tilida harakatning davomiyligi yoki yakuniyligi ko‘pincha fe‘lning leksik-semantik guruhlari, forsmorfologik affiksalar (“-ib”, “-ar”, “-gan”), hamda yordamchi fe‘llar (“turmoq”, “yotmoq”, “yurmoq”, “bo‘lmoq”) orqali ifodalanadi. Bu holat aspektning universalligini, ammo uning tilga xos realizatsiyasi farqliligini ko‘rsatadi.

Aspektual ma‘nolarning mohiyati va turlari

Aspektual ma‘no fe‘lning zamon, davomiylik, takroriylik va natijalilik kabi jarayonning ichki tuzilishini ifodalovchi semantik kategoriya bo‘lib, u voqeaning qanday tarzda kechayotganini bildiradi. Tilshunoslikda aspektual ma‘nolar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Inxoativ aspekt (harakatning boshlanishi) publitsistik matnda

Inxoativ ma‘no voqea-hodisaga turtki berilgan ilk bosqichni ko‘rsatadi va publitsistik matnda jarayonning yangiligi, keskin boshlanishi yoki dolzarbligini ta‘kidlaydi.

Masalan: *“Yangi islohotlar natijasida mamlakatda iqtisodiy faollik sezilarli darajada oshib, yangi loyihalar jadal boshlanmoqda.”*

Bu yerda *“boshlanmoqda”* fe‘li inxoativ-protsessual ma‘noni ifodalaydi: harakat endi boshlangan va davom etmoqda. Publitsistik uslub uchun xos bo‘lgan jarayonning yangiligi va tezkorligi urg‘ulanadi.

2. Protsessual aspekt (davom etayotgan jarayon)

Protsessual ma‘no voqeaning ayni damda kechayotganligini bildiradi va publitsistik matnda jarayonning izchil rivojlanishiga diqqatni qaratadi.

Masalan: *“Ayni paytda suv ta‘minoti bo‘yicha muammolarni hal etish borasidagi ishlar davom etmoqda.”*

“Davom etmoqda” shakli harakatning uzluksizligiga urg‘u berib, jarayonning muhimligi va hozirgi zamonda sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bu publitsistik uslubning dolzarblik tamoyiliga mos keladi.

3. Iterativ aspekt (takrorlanuvchi harakat)

Takroriylik publitsistik matnda an‘anaviy holatlarni, doimiy muammolarni yoki muntazam davom etadigan jarayonlarni ifodalashda qo‘llanadi.

Masalan: *“Har yili minglab yoshlar ushbu tanlovda qatnashib, o‘z iqtidorini namoyon etmoqda.”*

“Har yili” va *“qatnashib”* komponentlari iterativ ma‘noni yuzaga keltiradi. Matn jarayonning muntazamligi va ijtimoiy ahamiyatini ta‘kidlab, o‘quvchini umumiy holat bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

4. Terminativ aspekt (yakun topgan harakat)



Publitsistik uslubda terminativ ma’no muayyan voqea, loyiha yoki jarayonning rasman yoki mantiqan nihoyasiga yetganligini ko’rsatadi.

Masalan: “*Qurilish ishlari rejadani oldin yakunlandi va obyekt foydalanishga topshirildi.*”

“*Yakunlandi*” va “*topshirildi*” fe’llari harakatning to’liq tugallanganini ifodalaydi. Bu, odatda, rasmiy axborot, statistika yoki hisobot janriga xos bo’lgan semantik yuklamadir.

5. Natijaviy aspekt (yakuniy natijaga erishish)

Natijaviy aspekt publitsistik matnda voqeaning oqibatini ko’rsatish orqali argumentativ kuchni oshiradi.

Masalan: “*Ko’rilgan choralar tufayli hududdagi ishlari darajasi keskin kamaygan.*”

“*Kamaygan*” fe’li natijaviylikni bildiradi: harakat yakunlangan va uning real natijasi mavjud. Bunday konstruksiyalar publitsistik nutqda isbotlovchi dalil vazifasini bajaradi.

Publitsistik uslubda aspektual ma’nolarning ifodalanishi

Publitsistik uslubda aspektual ma’nolar matnning dinamikasi, voqea va jarayonlarning vaqt bo’yicha rivojini aniq va ta’sirchan ko’rsatish bilan bog’liq bo’lib, axborotni ommaga yetkazishning muhim semantik va stilistik vositalaridan biri hisoblanadi. Aspektual ma’nolar publitsistik matnda jarayonlarning dolzarbligini, tezkorligini, o’zgaruvchanligini, davomiyligini yoki yakunlanganligini yoritishda faol qo’llanadi. Shu bois, publitsistik uslubning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari aspektual kategoriyaning keng grammatik-semantik imkoniyatlarini ishga solishni talab etadi.

Publitsistik diskursda aspektual mazmun bir necha turdagi lisoniy vositalar orqali yuzaga chiqadi. Birinchidan, morfologik vositalar — fe’lning zamon-aspekt shakllari, ayniqsa *-moqda*, *-yapti*, *-gan*, *-di* kabi affiksalar jarayonning davomiyligi, yakunlanganligi yoki sodir bo’layotganligini belgilab beradi: “*Hozirda qurilish ishlari jadal davom etmoqda*”, “*Tahlil natijalari e’lon qilindi*”. Ushbu shakllar publitsistik matnga aniq vaqt referensiyasi va ob’ektivlik bag’ishlaydi [4].

Ikkinchidan, leksik vositalar — boshlamoq, avj olmoqda, sekinlashmoqda, yakunlandi, qayta boshlandi singari fe’llar ham aspektual ma’noni ochishda muhim rol o’ynaydi. Ular voqeaning qaysi bosqichda kechayotganini ko’rsatib, matnning semantik yukini kuchaytiradi: “*Norozilik namoyishlari yana avj olmoqda*”, “*Yangi loyiha ishga tushdi*”. Bunday birliklar publitsistik matnga hissiy dinamika va ta’sirchanlik beradi.

Uchinchidan, kontekstual va sintaktik vositalar — vaqt ko’rsatkichlari (*hozirda*, *kecha*, *so’ngra*, *bir necha marotaba*), takrorlovchi birliklar, hamda sabab-oqibat konstruksiyalari aspektual mazmunning shakllanishida faol ishtirok etadi. Masalan: “*So’nggi oylar davomida narxlar muntazam oshib bormoqda*”. Bu kabi konstruksiyalar iterativ, protsessual yoki natijaviy aspektni yuzaga chiqaradi.

Publitsistik uslubning ta’sirchanlik va tezkor axborot yetkazish tamoyili aspektual ma’nolarning uslubiy funksiyalarini ham belgilaydi. Jarayonlarning davomiy yoki avj olgan shaklda tasvirlanishi o’quvchini voqea markaziga jalb etadi, urg’u berilgan yakuniy natija esa argumentativ kuchni oshiradi. Natijaviy aspekt publitsistik matnda dalillovchi, isbotlovchi vosita sifatida keng qo’llaniladi: “*Ko’rilgan choralar natijasida hududdagi muammolar keskin kamaygan*”.

XULOSA.

Publitsistik uslubda aspektual ma’nolarning ifodalanishi matnning dinamikasi, informativligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim lingvistik omillardan biridir. Aspektual kategoriya publik axborotning real vaqt chizig’idagi harakatini tasvirlash, voqea-hodisalarning boshlanishi, davomiyligi, takroriyliigi yoki yakunlanganligini aniq ko’rsatish orqali publitsistik nutqning asosiy kommunikativ vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiladi. Fe’lning zamon-aspekt shakllari, leksik markerlar, yordamchi fe’llar, kontekstual ko’rsatkichlar va sintaktik qurilmalar aspektual ma’nolarning ushbu uslubdagi asosiy realizatorlari sifatida namoyon bo’ladi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, publitsistik matnlarda aspektual ma’nolar nafaqat voqeani bayon etish, balki o’quvchi ongida jarayonning izchil va jonli manzarasini yaratish, matnning stilistik ekspressivligini oshirish, uning argumentativ kuchini mustahkamlash kabi vazifalarni ham bajaradi. Jarayonning avj olishi, tezkorligi yoki tugallanishining urg’ulanib berilishi publitsistik uslubga xos operativ va ta’sirchan nutq modelini shakllantiradi. Demak, publitsistik uslubda aspektual ma’nolarning qo’llanish xususiyatlari tilning funksional



imkoniyatlarini kengaytirib, matnning semantik hamda pragmatik qiymatini belgilovchi omil sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amosova, N. Aspektualnost v russkom yazyke. – Moskva: Nauka, 2018.
2. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge University Press, 2019.
3. G'afurova, D. OAV tili va uslubi. – Toshkent: O'zMU, 2021.
4. Karimov, A. Publitsistik uslub va uning lingvistik xususiyatlari. – Samarqand, 2023.
5. Mirsanov, G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aktsional va aspektual xususiyatlari: Filol. fan. nomz. diss. – Samarqand, 2009. – 155 b.
6. Qorayeva, M. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2022.
7. Маслов Ю.С. Очерки по аспектологии. Изд-во Ленинградского ун-та, – Л.: 1984. – 262 с. 4.
8. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Т.: Фан, 1999. – 121 с.
9. Absamadova, M. I. (2024). Exploring the language of diplomacy: Understanding the significance and evolution of diplomatic terms. *Miasto Przyszłości*, 49, 1315-1318.
10. Isroilovna, A. M. (2022). Methodological frameworks in written translation. In *Online-Conferences" Platform* (pp. 37-40).
11. Absamadova, M. (2024). Structural Analysis of Diplomatic Terminology: Single-Component Vs. Multi-Component Terms. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*.
12. Isroilovna, A. M. (2024). The impact of diplomatic language on international relations: A comprehensive analysis. *International Journal of Formal Education*, 3(5), 504-507.
13. Absamadova, M. I. (2021). Games in the Teaching of English. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 43-47.
14. Халимова, Ф. Р. (2021). КОГНИТИВ ПОЭТИКА. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 133-142.
15. Rustamovna, H. F. (2020). KEY CONCEPTS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 232.